



GLOBALASHUV DAVRIDA DEONTOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARDA FAOL FUQAROLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Dilafuz Jabborova,

"Alfraganus university" nodavlat oliy talim tashkiloti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifat bo'limi maslahatchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1580>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 25

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ta'lim, axloqiy qarashlar, xulq-atvor, ijtimoiy faoliyat, milliy g'urur, vatanparvarlik, kompetensiya rivojlantirish

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda talabalarni ijtimoiy faol, milliy g'ururli va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim masala ekanligi borasida fikr yuritiladi. Globallashuv jarayonida bir tomondan, demokratiya, inson huquqlari, erkinlik va ochiqlik kabi umuminsoniy qadriyatlar keng yoyilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy o'zlikka befarqlik, iste'molchilik ruhiyati, axborot xurujlari va turli mafkuraviy tahdidlar kuchayotgani, bu holat yoshlarning ijtimoiy ongida qarama-qarshi tendensiyalarni yuzaga keltirishi mumkinligi, shuning uchun fuqarolik tarbiyasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, huquqiy ong, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish globallashuvning salbiy ta'sirlarini bartaraf etishda muhim omil ekanligi ilmiy tomonlama asoslab beriladi.

ABOUT THE PAPER

ANNOTATION

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 25

KEYWORDS

education, moral views, behavior, social activities, national pride, patriotism, development of competence

This article discusses the issue of educating students in a socially active, nationally proud and patriotic spirit in modern education. On the one hand, in the process of globalization, universal values such as democracy, human rights, freedom and openness are spreading widely, on the other hand, indifference to national identity, consumerism, information attacks and various ideological threats are increasing. This situation can create contradictory trends in the social consciousness of young people. Therefore, the development of critical thinking, legal awareness, patriotism and social responsibility in students through civic education is an important factor in eliminating the negative effects of globalization.

Kirish. Hozirgi davr globallashuv jarayonlari jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi va g'oyaviy ta'sirlarning kuchayishi shaxs dunyoqarashi hamda qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni ijtimoiy hayotga ongli va mas'uliyatli tayyorlash, ularda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o'rin tutishi bilan birga, uning ijtimoiy faol fuqaro bo'lib faollashuvi muhim o'rin tutadi. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib bormoqda. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun mohiyati to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ta'limning maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol faoliyatga, davlatning ijtimoiy – siyosiy hayotida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga intilish bo'lgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan.

Globallashuv jarayonida bir tomondan, demokratiya, inson huquqlari, erkinlik va ochiqlik kabi umuminsoniy qadriyatlar keng yoyilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy o'zlikka befarqlik, iste'molchilik ruhiyati, axborot xurujlari va turli mafkuraviy tahdidlar kuchaymoqda. Bu holat yoshlarning ijtimoiy ongida qarama-qarshi tendensiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun fuqarolik tarbiyasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, huquqiy ong, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish globallashuvning salbiy ta'sirlarini bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida talabalar ijtimoiy faolligini va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli yondashuvlar asosida o'rganilgan.

X.M. Tojiboeva ijtimoiy faollikni shaxsning ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati sifatida talqin etib, uning shakllanishida ta'lim-tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [1, 45–47-betlar]. Muallifning fikricha, ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglash va faol fuqarolik pozitsiyasini egallashda muhim omildir.

N.N. Djamilova o'z tadqiqotlarida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rolini asoslab beradi. Ayniqsa, interfaol metodlar orqali talabalar mustaqil fikrlash,

tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalariga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [2, 52–55-betlar].

Q.Q. Quronboyev fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishni demokratik qadriyatlar bilan bog'lab, talabalarda huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [3, 60–64-betlar]. Uning fikricha, ta'lim jarayoni orqali yoshlarda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissi shakllantirish mumkin.

B.Sh. Shermuhammadov globallashuv jarayonida yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash muhimligini qayd etadi. U milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni fuqarolik tarbiyasining samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi [4, 70–73-betlar].

G.J. Tulenova esa talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishda psixologik omillarga alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, shaxsning ichki motivatsiyasi, ehtiyojlari va qadriyatlari fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [5, 80–84-betlar].

Xorijiy olimlardan J. Dewey ta'limni ijtimoiy tajriba asosida tashkil etiladigan jarayon sifatida baholab, fuqarolik tarbiyasini demokratik jamiyatning ajralmas qismi deb hisoblaydi [6, 28–31-betlar]. A. Bandura esa ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali shaxs xulq-atvori kuzatish va tajriba orqali shakllanishini asoslab beradi, bu esa fuqarolik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [7, 36–40-betlar].

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida aytish mumkinki, globallashuv sharoitida talabalar ijtimoiy faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlarning uyg'unligini talab etadi. Deontologik yondashuv esa mazkur jarayonda axloqiy me'yorlar, burch va mas'uliyatni shakllantirishning muhim nazariy asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda globallashuv sharoitida talabalarida faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni deontologik yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsiga yo'naltirilgan, tizimli, kompetensiyaviy va aksiologik yondashuvlar tashkil etadi. Shu bilan birga, deontologik yondashuv orqali talabalarda burch, axloqiy me'yorlarga sodiqlik kabi sifatlarni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnomalar, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali talabalar ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi hamda axloqiy qadriyatlarining shakllanish darajasi o'rganildi. Shuningdek, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar va ijtimoiy loyihalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali talabalar faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Tadqiqot

natijalari asosida deontologik yondashuvga asoslangan pedagogik shart-sharoitlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Fuqarolik tarbiyasining ijtimoiy zarurati jamiyat barqarorligi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Faol fuqarolar mavjud bo'lgan jamiyatda ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy hamkorlik ta'minlanadi. Shu bois, yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, o'z huquq va majburiyatlarini anglashga hamda umumiy manfaatlar yo'lida mas'uliyat bilan harakat qilishga o'rgatish ijtimoiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur jarayonda ta'lim muassasalari fuqarolik tarbiyasining asosiy ijtimoiy-pedagogik instituti sifatida mavdonga chiqadi. Ta'lim jarayonida fuqarolik tarbiyasini tizimli tashkil etish orqali talabalarda ijtimoiy faollik, huquqiy madaniyat, demokratik qadriyatlarga hurmat va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, tarbiyaviy ishlarni globallashuv sharoitiga mos metod va shakllar asosida tashkil etish yoshlarning hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF-5712-son va 2020-yil 27-fevraldagi "Redagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi RQ-4623-son Qarorlari, 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Oliy ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarorida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot muammosiga oid taxlillar shundan dalolat beradiki, talabalarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollikni rivojlantirish muammolari bo'yicha respublikamiz olimlari X.M.Tojiboeva, N.N.Djamilova, Q.Q.Quronboev, B.Sh.Shermuhammadov, G.J.Tulenovlar yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga to'xtalib o'tgan.

X.M.Tojiboevani ta'kidlashicha, ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan. Ijtimoiy faollik me'yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolliklarini oshirish ular o'rtasidagi ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayoni"

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida talabalar ongida qarama-qarshi qadriyatlar tizimi shakllanishi

№	Yo'nalish	Mazmuni	Amalga oshirish usullari	Kutilayotgan natijalar
1	Deontologik yondashuv	Talabalarda burch, mas'uliyat, axloqiy me'yorlarga sodiqlikni shakllantirish	Axloqiy muhokamalar, vaziyatli topshiriqlar, namunaviy xulq tahlili	Mas'uliyatli, ongli va ijtimoiy faol shaxs shakllanadi
2	Fuqarolik kompetensiyasi	Huquqiy ong, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish	Bahs-munozara, trening, ijtimoiy loyihalar	Talabalarda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi
3	Globallashuv ta'siri	Global qadriyatlar va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, seminarlar	Milliy o'zlikni anglash va global fikrlash rivojlanadi
4	Tanqidiy fikrlash	Axborotlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi	Muammoli vaziyatlar, case-study, tahliliy topshiriqlar	Tanqidiy va mustaqil fikrovchi shaxs shakllanadi
5	Ijtimoiy faollik	Talabalar jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlash	Ko'ngillilik faoliyati, loyihaviy ishlar	Jamiyatga daxldorlik hissi kuchayadi
6	Tarbiyaviy muhit	Ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri	Hamkorlik dasturlari, ota-ona va jamiyat bilan integratsiya	Barqaror fuqarolik qadriyatlarini shakllanadi

Mazkur jadval globallashuv sharoitida deontologik yondashuv asosida talabalarida faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari, ularning mazmuni hamda amaliy natijalarini tizimli ravishda aks ettiradi.

Xulosa. Shunday qilib, globallashuv jarayonida fuqarolik tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik zarurati jamiyat taraqqiyoti, yoshlarning

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. –14-b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yi larga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28 yanvar. –www.lex.uz
- Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-moduli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. –Toshkent, 2021. 88-b.
- Tojiboeva X.M. "O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faollikini oshirishning pedagogik tizimi" diss. 2018 y.
- Tojiboeva X.M. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 120 b.

ehtimoli ortmoqda. Bir tomondan, ochiqlik, erkinlik va demokratik qadriyatlar keng tarqalayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy o'zlikka befarqlik, individualizm va iste'molchilik kabi tendensiyalar kuchaymoqda. Bu esa talabalar ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy ta'lim yondashuvlari talabalarida faol fuqarolik ko'nikmalarini to'liq shakllantirishda yetarli darajada samarali emas. Aksincha, deontologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalar ongida burch, mas'uliyat va ijtimoiy javobgarlik kabi sifatarni chuqurroq shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali talabalarda nafaqat bilim, balki axloqiy mezonlarga asoslangan xulq-atvor ham rivojlanadi.

Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy loyihalarga asoslangan faoliyatlar talabalarining mustaqil fikrlashi, ijtimoiy tashabbuskorligi va jamiyat hayotiga daxldorlik hissini kuchaytirishi aniqlandi. Ayniqsa, bahs-munozaralar va jamoaviy ishlarda ishtirok etish orqali talabalar turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, o'z fikrini asoslash va ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik ko'nikmalarini egallaydi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida shuni ta'kidlash joizki, fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirishda faqat ta'lim muassasasi emas, balki oila va ijtimoiy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli mazkur jarayonni kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarur.

Mazkur tadqiqot doirasida globallashuv sharoitida talabalarida faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Ayniqsa, deontologik yondashuvning mazmun-mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda talabalarining axloqiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri muhim ilmiy jihat sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish birgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsda burch, mas'uliyat, ijtimoiy ong va qadriyatlarini rivojlantirishni ham talab etadi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonining ikki tomonlama ta'siri — ya'ni umuminsoniy qadriyatlarining keng tarqalishi va ayrim salbiy mafkuraviy omillarning kuchayishi — talabalarining ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishda yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayonda interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, ijtimoiy loyihalar va tarbiyaviy tadbirlarning uyg'unligi samarali natija berishi aniqlangan.

Quyidagi jadvalda deontologik yondashuv asosida talabalarida faol fuqarolik ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari, ularning mazmuni, amalga oshirish usullari hamda kutilayotgan natijalari tizimli ravishda keltirilgan:

ma'naviy-axloqiy kamoloti hamda ularni turli g'oyaviy tahdidlardan himoyalash ehtiyoji bilan belgilanadi. Fuqarolik tarbiyasi shaxsni nafaqat bilimli mutaxassis, balki ijtimoiy mas'uliyatli va faol fuqarolik sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

- Djamilova N.N. Yoshlar ijtimoiy faollikini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 150 b.
- Quronboev Q.Q. Fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020. – 135 b.
- Shermuhammadov B.Sh. Globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 140 b.
- Tulenova G.J. Talabalar ijtimoiy faollikini rivojlantirishning psixologik omillari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 128 b.
- John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
- Albert Bandura. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – 247 p.